

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **ALISHER NAVOIYNING “NAZM UL-JAVOHIR” ASARIDA DUNYO OBRAZI**

**Shoiraxon XO'JAYEVA**  
*TDO 'TAU doktoranti (DSc)*  
[shoiraxon24@gmail.com](mailto:shoiraxon24@gmail.com)

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14803786>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarida dunyo obrazining talqin etilishi masalasiga bag‘ishlanadi. Unda “Nazm ul-javohir” ruboiylari tahlilga tortilib, mazkur obrazning ulug‘ shoir ijodidagi irfoniy mohiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** dunyo, obraz, talqin, ruboiy, tahlil, irfon, ta’lim, tushuncha, mohiyat.

**Annotation:** This article is dedicated to the interpretation of the image of the world in Alisher Navoi's work "Nazm ul-javohir". In it, the rubaiyat of "Nazm ul-javohir" is analyzed, revealing the spiritual essence of this image in the works of the great poet.

**Key words:** world, image, interpretation, rubai, analysis, knowledge, education, concept, essence.

**Аннотация:** Данная статья посвящена интерпретации образа мира в произведении Али Шера Навои "Назм ул-джавохир". В ней анализируются рубаи "Назм ул-джавохир", раскрывая духовную суть этого образа в творчестве великого поэта.

**Ключевые слова:** мир, образ, интерпретация, рубаи, анализ, познание, обучение, концепция, суть.

Alisher Navoiyning boy adabiy merosida dunyo timsoli alohida o‘rin tutadi. Buyuk ijodkor bu istilohni ko‘pincha insonni haq yo‘ldan adashtiruvchi fitnagar, nafsoniy istaklar majmuyi sifatida talqin etgan. Buni ulug‘ shoirning Hazrat Ali hikmatlari asosida yozilgan “Nazm ul-javohir” asari misolida ham ko‘rish mumkin.

*Har kimga livoyi charxi farsud kerak,  
Ko ‘nglida sipehr dardi mavjud kerak,  
Har kimgaki, ko ‘ngli dardi nobud kerak,  
Har neki qazodin o ‘lsa, xushnud kerak.[147]*

“Davo ul-qalb ir-rizou bil-qazoi”, ya’ni “Qalbning shifosi – qazoga rozi bo‘lish” hikmati asosida yozilgan mazkur ruboiyda badiiy g‘oya ramziy ifodalar vositasida taqdim etilgan. Chunonchi, birinchi misrada “livoyi charxi farsud”, ya’ni nopol charxning bayrog‘i haqida so‘z boradi. Bayroq obrazi mumtoz adabiyotda maqsadga erishish ma’nosini anglatadi. Qadimda podshohlar biror g‘alabaga erishganlarini bayroq ko‘tarish yoki o‘rnatish bilan bildirganlar. Charx esa bu yerda dunyo ma’nosida bo‘lib, u ikkinchi misradagi “sipehr” (osmon) so‘zi bilan bog‘lanadi va baytdan shunday mazmun yuzaga keladi: “Kimga nopol charxning bayrog‘i – dunyo ustidan hukmronlik kerak bo‘lsa, demak, uning ko‘nglida dunyo

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

dardi bor”. Ya’ni kimning qalbida dunyoning o’tkinchi xoyu havaslari bo‘lsa, demak, u tiganmas dard-u tashvishlarga mubtalodir. Zero, dunyo matohlari kishiga faqat muammo-tashvish keltiradi. Ikkinci baytda esa kimki ko‘nglidagi dunyo dardidan xalos bo‘lishni istasa, unga qazoyi qadardan nimaiki berilsa, shunga rozi bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Demak, ruboiyning botiniy mazmunida rizo bilan birga **fano** masalasi ham aks etgan bo‘lib, u shoirning “Sabb’ai sayyor” dostonidagi quyidagi baytlarga mazmunan va badiiyatan mushtarakdir:

*Sen chu ursang fano yo ‘lida alam,  
Yo ‘qqa mumkin emas yetishmak alam.  
Alamin ko ‘rmayin desang yo ‘q bo ‘l,  
Seni yo ‘q topsa o ‘zga netgay ul? [3.382]*

Tajnisi xatti san’ati aosidagi mazkur baytlarda buyuk shoir insoniyatga xitoban: “Agar sen fano yo‘lida alam (bayroq, علم) ko‘tarsang, ya’ni fanoga erishib, o‘zingdagi dunyoviy istaklarni yo‘q qila olsang, bu bilan dunyodan yetuvchi barcha alam (dard, الالم) larni ham yo‘q qilgan bo‘lasan. Chunki yo‘q narsaga alam yetishmog‘i mumkin emas. Shunday ekan, dunyo dardini ko‘rmayin desang, yo‘q bo‘l (ya’ni nafsoniy istaklaringni yo‘q qil). Dunyo seni yo‘q holda topar ekan, qo‘lidan nima ham kelardi?” deydi.

Umuman, fano mavzusi Alisher Navoiy ijodida eng ko‘p yoritilgan masalalardan bo‘lib, buyuk shoir nazaridagi fano insonning o‘z botinidagi nafsdan kechishi orqali “qiyomati sug‘ro” – kichik qiyomat deb ataluvchi ma’naviy tug‘ilishni o‘z boshidan kechirishini va oxir-oqibat olamni ishq, ma’rifat va haqiqat nuri bilan mushohada etishini anglatadi. [6.95]

*Dunyo bila necha zebu oro qilmoq,  
Ul zeb ila do ‘zax o ‘ti barpo qilmoq,  
Mumkin emas ersa tarki dunyo qilmoq,  
Uqbo bila xushtur ani savdo qilmoq. [139]*

Keltirilgan ruboiy “Nazm ul-javohir” asaridagi “Ba’ ad-dunyo bil oxirati tarbahu” (“Bu dunyoni oxirat uchun sotib yubor, foyda ko‘rasan”) hikmati asosida bitilgan. Unda ham yuqorida tahlil etilgan ruboiydagi kabi mazmun, ya’ni dunyoga xirs va havas qo‘ymaslik g‘oyasi ilgari surilgan. Muallifning uqtirishicha, dunyo bilan, ya’ni dunyo ne’matlari bilan bezanmoqlik aslida bu bezaklar bilan o‘zi uchun do‘zax o‘ti barpo qilmoqlikdir. A.Navoiy kabi ulug‘ adiblarimiz inson ruhiyatini chuqur anglaganlar. Binobarin, ular inson tabiatida yengillikka, go‘zallikka, rohat-farog‘atga, to‘kislikka intilish istagi kuchli ekanligini ham nihoyatda teran idrok etganlar. Afsuski, bu istak ko‘pincha insonni to‘g‘ri yo‘ldan adashtiradi. Dunyo matohlari bo‘lmish mol-dunyo, amal-mansab, shon-shuhrat kabilar inson ko‘ngliga

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

xush yoqqani holda, asta-sekin uning ko‘zini haqiqatdan pardalab borishi, inson o‘zi bilmagan holda ana shu dunyo matohlariga bog‘lanib, uning asiriga aylanib qolishi mumkinligi ham ayni haqiqatdir. Dunyoga aldanganlar esa Haqni unutib, oxiratlarini vayron qiladilar. Ya’ni bir umr yiqqan-tergan bisotlari aslida do‘zax olovi uchun yig‘ilgan xas-hashak maqomida bo‘ladi. U holda nima qilmoq lozim? Ruboiy so‘ngida ulug‘ shoir Hazrat Ali hikmatlari asosida mazkur muammoning yechimini ko‘rsatadi: “Modomiki dunyoni tark qilmoqlik mumkin emas ekan, uni oxirat bilan almash (savdo qil)”. Zero, Alloh taolo Qur’oni karimda marhamat qilganidek: “Albatta, oxirat sen uchun bu dunyodan yaxshidir”. [5.596]

“Nazm ul-javohir”ning ayrim ruboiylarida dunyo bilan bog‘liq tushunchalar ramziy timsollar yordamida ifodalangan.

*Botilki chaqilsa barqi toboni aning,  
Ko‘zni yumub ochquncha yo‘q imkoni aning,  
Haqkim yo‘q naf’ ichinda poyoni aning,  
Bo‘lg‘usi qiyomatqacha javloni aning.* [144]

Ushbu ruboiyda Hazrat Alining “Javlat ul-botili so‘atun va javlat ul-haqqi il asso‘atti” (“Botilning umri bir soat, haqiqatniki esa qiyomat kunigacha”) hikmati mazmuni butun asar qatiga singdirib yuborilgan. Unda muhim diniy masala – haq va botil masalasiga urg‘u berilmoqda. Ma’lumki, haq va botil orasidagi kurash bu nihoyatda qadimiy va barcha davr uchun dolzarbdir. Qur’oni karimning “Ra’d” (“Chaqmoq”) surasi 17-oyatida haq va botil misoli juda go‘zal tarzda beriladi: “U Zot osmondan suv tushirdi. So‘ngra vodiylarda o‘z miqdoricha sel oqdi. Sel o‘z ustiga chiqqan ko‘pikni ko‘tarib keldi. Va zeb-ziynat, asbob-uskuna yasash maqsadida o‘tda toblanadigan narsalarda ham shunga o‘xhash ko‘pik bo‘lur. Alloh haq va botilga mana shunday zarbulmasal keltirur. Ammo ko‘pik o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketur. Odamlarga manfaat beradigan narsa esa yer yuzida qolur. Alloh misollarni ana shunday keltirur. [5.251] Guvohi bo‘lganimizdek, Alloh kalomida oqar suv yuzidagi xashak va ma’danlar eritilganda uning ustiga chiqib qoladigan ko‘pik-chiqindisi botilga, pokiza suv va ma’danning asli esa haqqa qiyoslanmoqda. Odatda, inson ko‘zi jilg‘aga boqqanda eng avvalo uning yuzidagi xas-xashakka, eritilgan ma’danga qaraganda uning yuzasida turgan ko‘pikka tushgani kabi hayotda ham ko‘pincha botil narsa ko‘zga tez tashlanadi. Ammo inson bunga aldanib qolmasligi lozim. “Botil chaqmoq kabi ko‘zga yarq etib ko‘ringani bilan uning umri ko‘z yumib-ochguncha qisqadir, – deydi Navoiy, – haq esa insonlarga bemisl naf-foyda keltirgani holda qiyomatgacha yashaydi”. Bu yerda shoirning san’atkorligi shundaki, u botilni chaqmoqqa o‘xshatish orqali, bir tomonidan, uning umri qisqaligini anglatsa, boshqa tomonidan, Qur’ondagi haq va botil misoli aks etgan suraga ishora qilmoqda.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

*Olam tarki kishiga himmatdin erur,  
Kim ko 'p shiddat ul sari rag 'batdin erur,  
Nafsingg 'a qayu alamki shiddatdin erur,  
Maxfiy tutmoq ani muruvvatdin erur.* [138]

Asarda 10-raqam ostida beriluvchi bu ruboiy Hazrat Alining “Ixfo“ ushshada’idi min al-muruvvati” (“Qiyinchiliklarni berkitmoq muruvvatdandir”) degan hikmati asosida bitilgan. Ushbu hikmat sharhini Navoiy tasavvuf bilan bog‘laydi. Ruboiyda qalamga olingan ilk masala “olam tarki” masalasidir. Shunga ko‘ra, matn (ruboiy)ning struktural tahlilini amalgalash oshirishda ana shu semiotik kalitning mohiyatini bilish juda muhim bo‘lib, bu ayni damda hikmat mag‘zini chaqmoqqa yo‘l ochadi. “O’lmasdan avval o‘lish” tushunchasi tasavvufda mashhur bo‘lib, u insonning hayot chog‘idayoq olamning barcha xoyu havaslarini tark etmog‘ini bildiradi. Dunyoga ko‘ngil bermaslik, dunyo matolari ketidan quvmaslik, ko‘ngilni Alloh ishqidan o‘zga barcha mayllardan xoli qilmoq olam tarkidir. Shu ma’noda, “olam tarki”ga erishgan inson zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan bo‘ladi. Buni naqshbandiya tariqatida “xilvat dar anjuman” deydilar. Naqshbandiya ta’limotiga alohida hurmat va muhabbat bilan qaragan Navoiy ruboioyning birinchi misrasida olam tarki kishining himmati balandligidan nishona ekanligini qayd etadi. Demak, galdegagi semiotik kalit bu “himmatt”dir. Navoiy ijodida himmat – bu konseptual tushuncha bo‘lib, uning zamirida mullif dunyoqarashi va ma’naviy olami yashirin. Shu bois mazkur tushuncha mohiyatini anglash asarni muallif nazarda tutgan ma’noda tushunish va to‘g‘ri talqin qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy ko‘plab asarlarida himmat masalasida so‘z yuritgan. Xususan, “Hayrat ul-abror” dostonida ayni masalaga maxsus to‘xtalib, himmatning uch darajasini ko‘rsatadi. Birinchi daraja himmatning eng quyi darajasi bo‘lib, u bugungi kunda ko‘pchilik nazarda tutadigan saxovat ma’nosini ifoda etadi. Navoiy bunday himmat sohiblarini shunday ta’riflaydi:

*Ochg ‘a yemak bersa, yalang ‘ochg ‘a to ‘n,  
Yuz tilaganlarga mingu birga o ‘n.* [2.169]

Himmatning ikkinchi, ya’ni o‘rta darajasi esa qanoatni ifodalaydi. Himmatning ushbu bosqichiga yetgan kishilar qo‘llarida bor narsalarga qanoat qilib, taqdirdan rozi holda hayot kechiradilar. Buyuk shoir bunday zotlarni ta’rif etar ekan, ularning kamtarona hayotida oddiy kishilar e’tibor bermaydigan jihatlarga ham teran nigoh tashlab, barcha narsalardan baxt topa olishini ta’kidlaydi:

*Kun bo ‘lubon vardi guliston anga,  
Oy bo ‘lubon sham ‘i shabiston anga...  
Qilsa tasavvur bila xursandliq,*

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

*Yodi bila etsa barumandliq. [2.170-171]*

Uchinchi daraja himmatning eng yuqori darajasi bo'lib, bunday yuksak maqomga yetgan kishi yuqorida bayon etganimiz "olam tarki"ga erishgan bo'ladi. Ko'nglini dunyo maylidan butkul xoli etgan bu kabi zotlar uchun butun dunyoning bir hovuch kulcha qadri bo'lmaydi.

*Bermasa ko 'k qasrig 'a vayronini,*

*Toqi falakka yiquq ayvonini.*

*Bo 'lsa toboni dag 'i har sori chok,*

*Yer yuziga ibrat uchun xandanok. [2.152]*

Mazkur dostonda Hotami Toyidan "O'zingizdan ham himmati balandroq insonni ko'rganmisiz?" deb so'raganlarida u zotning: "O'tinchi cholning himmati menikidan ustundir", deya e'tirof etgani xususida so'z boradi. Bundan ko'rindaniki, Hotami Toyi himmatning ilk bosqichida bo'lsa, qariya himmatning eng baland bosqichidadir.

Ruboiyning keyingi misrasida kishi boshiga "ko'p shiddat", ya'ni qiyinchilik tushishi olamga ko'p rag'bat qilishdan kelib chiqishi aytildi. Chindan ham, kim bu dunyo ishlariga haddan tashqari diqqatli bo'lsa, tiriklik tashvishlariga shu qadar ko'p berilib ketadiki, o'tkinchi dunyo xoyu havaslari insonni asl mohiyatidan, haqiqatidan, Haqdan uzoqlashtirib yuboradi. Ruboiyning xulosa qismida inson nafsigiga (joniga) qiyinchilik tufayli qanday alam yetmasin, uni boshqalarga bildirmay, maxfiy tutishi uning muruvvatining belgisi ekanligi aytildi. Zero, shikoyat qilmaslik mo'minlarga xos fazilatdir.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asarida dunyo va dunyoviy matohlarga ko'ngil qo'yishni qoralash orqali insoniyatni nafsoniy istaklardan xalos bo'lib, ma'naviy kamolot hosil qilishga chorlagan. Inson ma'naviyatiga mafkuraviy tahdidlar kuchaygan hozirgi globallashuv davrida mazkur asar xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan bemisl ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

#### **(Использованная литература / References):**

1. Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. 15-жилд. – Т.: Фан, 1999.
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. Ҳайрат ул-аббор. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Алишер Навоий. Сабъаи сайдер. МАТ. 20 жилдлик. 10-жилд. – Тошкент: Фан, 1992.
4. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони (Монография) – Тошкент: Адабиёт. 2021.
5. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Тошкент: Hilol-Nashr. 2022.
6. Ҳаққул И. Навоий шеъриятида фано талқинлари / Мерос ва моҳият. – Тошкент: Маънавият. 2008.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

7. Khujaeva, Durdon Zohidova Shoirakhon. "CREATIVE HISTORY OF ALISHER NAVOI'S WORK" NAZM UL JAVAHIR." Journal of Modern Educational Achievements 5.5 (2023): 436-441.
8. S.Khujaeva. "RHYTHMIC VARIATION IN ALISHER NAVOI'S WORK" NAZM UL-JAVAHIR".Pedagogy, 2023, Vol. 7, No.1,1244-1247.
9. Xo'Jaeva, S. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA IYMON TALQINI. Academic research in educational sciences, 4(Conference Proceedings 1), 180-187.
10. Khujaeva Shoirakhon. (2023). The Artistry of Alisher Navoi's work "Nazm Ul-Javohir". American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 403–408.
11. Khujaeva Shoirakhon. (2023). The Use of Rhyming Arts in Alisher Navoi's Work Nazm Ul-Javohir. Journal of Advanced Zoology, 44(S6), 1555–1560.